

Maqomlarning “Mushkilot” cholg‘u bo‘limlari “Tasnif” nomli kuylar bilan bioshlanadi. Bu atama “Olti maqom” ning har biriga qo‘shib aytiladi. “Tasnifi Buzruk”, “Tasnifi Rost”, “Tasnifi Ravo”, “Tasnifi Dugoh”, “Tasnifi Segoh” va “Tasnifi Iroq”. Tasniflarda, odatda, 2/4 o‘lchov ritmida bo‘lgan doira usuli qo‘llaniladi. Ustozlar an‘anasida bu usul “bak-bak, bum-bum, bak-ist” deb ifoda etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amonov U. S. O‘qish darslarida maqol janridan foydalanish usullari va ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.53. 34.124 US
2. O.R.Avezov. [Ekstrennaya psixologicheskaya pomosh v ekstremalnih situatsiyax](#). Vestnik integrativnoy psixologii 4 (No. 21), 34-37.
3. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo‘llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
4. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. "linguistic classification of toponyms of bukhara district." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (*EJEDL*) 2.09 (2021): 1-
5. Safarov F. S. et al. The effect of a tissue biostimulator on embryonic and post-embryonic development of lambs //Uchen. Zap-azerb. sel'.-khoz-Inst. Ser. zhivot. – 1970. – №. 2. – С. 38-41.
6. Hayitov H. A. Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – С. 3-5.
7. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. [An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics](#)// Middle European Scientific Bulletin. [Volume 8](#), January 2021, 174
8. Ergashovna S. G. Formation of concepts about length in primary school students, developing length measuring skills. – 2021.
9. Джураева С. Н., Дустова Д. С. Способы воспитания личных качеств у студентов педагогической специальности //Academy. – 2019. – №. 6 (45). – С. 96-98
10. O‘ktamovna X. N. O‘zbek romanlarida tarixiy inversiyani berish usullari va vositalari //Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 430-433.
11. Хайтов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/5. – С. 49-52.
12. Хайитов Х. А. Лўли номи билан боғлиқ латифаларнинг ўзига хос хусусиятлари //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.
13. Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – Т. 14. – С. 101-105.
14. Akhmadovich H. H. Khoja nasriddin afandi as people's hero //academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1562-1565.
15. Ruzieva S. MOHIR-U MEHR-U MAHORAT //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 1.мм.
16. Akbarov I. – Musiqa lug‘ati (O‘zbek tilida)
17. Azimova A. , Baxtiyorova N. Solfedjio (O‘quv qo‘llanma)
18. Agayeva M. –Musiqa nazariyasi
19. Abdullayeva Oydin – Solfedjio (bolalar musiqa va san‘at maktablari uchun)

MIRKARIM OSIMNING “YULDUZLAR SAYRI” ASARI – TARIXIY-BIOGRAFIKQISSA NAMUNASI

**Amonov Ulug‘murod Sultonovich,
BuxDUPI dotsenti
Navro‘zova Dilnavoz, Sobirova Sabina,
BuxDUPI talabasi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixnavis adib Mirkaim Osimning ijodiy faoliyati; tarixiy asarlar, biografik asarlarga xos xususiyatlar adibning asarlari asosida ilmiy, tarix mezonlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan tarixiy-biografik asari qisman tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: milliy g‘oya, milliy mafkura, tarix, tarixiy-biografik, avtobiografik qissa, tarixiy-qahramonlik, tarixiy-inqilobiy mavzudagi asarlar.

XIX asrning uchinchi choragidan XX asrning 90-yillariga qadar Millatimiz va Vatanimizning eng og‘ir qonli tarixi sahifalarini tashkil etadi. Ma‘lumki, ushbu davrda avval Chor Rossiyasi, keyin sobiq

Ittifoqning mustamlakasi edi. Bu davrda biz o'zimizning tariximiz, dinimiz, milliy tafakkur, milliy mafkuramizdan, hatto milliy adabiyot va tilimizdan mahrum etildik. Xalqimizning baxtiga A.Fitrat, A.Qodiriy, Oybek, M.Shayxzoda, Odil Yoqubov, P.Qodirov, A.Oripov, E.Vohidov, R.Parfi singari adiblarimiz qadim xalqimiz va Vatanimiz, ularning buyuk farzandlariga bag'ishlab yozgan asarlari bilan xalqimizning o'zligini, tarixini – qalbini saqlab qoldilar.

Ana shunday adiblardan biri XX asrning 60-yillaridagi o'zbek tarixiy qissachiligining takomiliga hissa qo'shgan iste'dodli yozuvchi Mirkarim Osimdir. Adib "Yulduzlar sayri", "Karvon yo'llarida", "Ixlos tuzog'i", "Zulmat ichra nur", "Jayhun ustida bulutlar" kabi asarlari bilan o'zbek tarixiy qissachiligida yangi sahifalar yarata oldi.

Mirkarim Osimni xalqimizning bir necha avlodi taniydi. Uning asarlaridan eng yaxshilari qariyb yarim asrdan buyon o'rta maktab darsliklaridan o'rin olib, yangi-yangi avlodlar bilan ona tariximiz, boy o'tmish madaniyatimiz, nurga, ziyoga intilgan vatanparvar, ilmparvar aajodlarimiz o'rtasida mustahkam ko'prik bo'lib, tarix bilan hozirgi kunlarimizni bolab turibdi. Bu asarlar xalqimizning ming-ming yillar davomida shakllangan an'analari, urf-odatlarini, ilor udumlarini ko'zga ko'rinmas nozik ip bilan bugungi istiqloq kunlarimiz bilan tutashtirib kelmoqda.

"Ma'lumki, tarixiylik, – yozadi adabiyotshunos M.Sattorov, – tarixiy asarning qoni va joni. Tarixni, tarixiy materialni, qalamga olinayotgan davr ruhini bilmasdan turib, tarixiy asar yaratib bo'lmaydi. ¹ Shu ma'noda Mirkarim Osim tarixni, tarixiy materialni, qalamga olingan davr ruhini bilgan, sinchiklab o'rgangan, his etgan yozuvchidir. U qaysi davrni qalamga olmasin, kitobxonni o'sha davr hayotiga olib kiradi. Mirkarim Osimning o'zbek adabiyotidagi xizmati, adabiyotshunoslar o'rinli ta'kidlaganiday, tarixiy qissalari bilan belgilanadi. Adabiyotshanos P.Shermuhamedovning adib haqidagi fikrlari mulohazalarimizni yanada to'ldiradi: "Xalqimizning olis o'tmishini badiiy ifoda qilish xususida so'z yuritilar ekan, bu sohada taniqli adib Mirkarim Osim qilgan xizmatlarni, uning o'ziga xos, maroqli hikoyalarini va qissalarini tilga olmaslik mumkin emas". Ta'bir jog'iz bo'lsa, o'zbek prozasida eng ko'p tarixiy shaxslar obrazlarini adabiyotimizda badiiy qayta gavdalandirgan yozuvchi ham Mirkarim Osimdir.

Shu o'rinda tarixiy qissa janri haqida ikki og'iz so'z. Bu janr o'zbek adabiyotida paydo bo'lishi zabardast adib Sadridin Ayniy nomi bilan boliq. Uning "Buxoro jallodlari", "Qulbobo yoki ikki ozod", "Odina" singari qissalari yaqin tariximiz sahifalaridan so'zlaydi. Tarixiy qissalar yana o'zining ichki janr ko'rinishlariga ega: tarixiy-qahramonlik, tarixiy-avtobiografik, tarixiy-biografik, tarixiy-fantastik kabilar shular jumlasidandir. Mirkarim Osim ijodini o'rgangan adabiyotshunos olim M.Sattorov adib qissalarini ikki jihatdan tasnif qiladi: "Tarixchi adibning asarlarini davriy jihatdan shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Tariximizning qadimgi davrlari haqidagi hikoyalar. (Makedoniyalik Iskandar, so'ngra arab xalifaligining, keyinroq eroniy shohlarning o'rta Osiyoga yurishlari haqidagi asarlar).

2. O'rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi asarlar. (Mo'ullar istilosi va buyuk fan, madaniyat arboblari haqidagi biografik qissa va va hikoyalar).

3. 18-asrdan to xx-asr boshlarigacha bo'lgan tarixiy hayotini badiiy aks ettiruvchi asarlar turkumi. Ayni paytda Mirkarim Osim asarlarini uch katta tematik yo'nalish bo'yicha tahlil qilish, baholash mumkin. Bular:

1. Tarixiy-qahramonlik mavzusidagi asarlar.

2. Tarixiy-inqilobiy mavzudagi asarlar.

3. Tarixiy-biografik asarlar ².

Mazkur tasnif Mirkarim Osim ijodidagi qissalar mohiyatini o'zida to'la aks ettiradi. Shu ma'noda adibning "Zulmat ichra nur", "Jayhun ustida bulutlar", "Singan setor", "Yulduzlar sayri" singari qissalarini davriyligiga ko'ra ikkinchi guruhga, mavzuiga ko'ra uchinchi guruh- tarixiy-biografik qissalarga kiritish mumkin.

Avtobiografik qissalarni o'rgangan A.Abrorov yozadi: "Avtobiografik qissalar o'z uslubiga ko'ra ikki turli bo'ladi. Bir necha turdagi avtobiografik asarlarda yozuvchi o'z boshidan kechirgan voqea va hodisalarni, faktlarni boshqa badiiy obraz orqali tipiklashtiradi. Aniqrog'i, avtorning o'zi asarning markazida tursa ham, u boshqa nom bilan syujetda harakat qiladi.

Ikkinchi tur avtobiografik asarlarda bosh qahramon sifatida bosh qahramon o'z nomi bilan qatnashadi. Avtorning o'z hayotida yuz bergan voqea va faktlar, o'zi ko'rgan yoki ishtirok etgan

¹ Сатторов М. Ватан осмони. (Болалар адабиёти, тарихий проза, замон). Тошкент: "Ёш гвардия", 1987 йил, 3-бет.

² Сатторов М. Мозий сабоқлари. Китобда: Миркарим Осим. Карвон йўлларида. Сайланма. Тошкент: G'G'ACH, 1987 йил, 4-5-бетлар.

epizodlar asarning asosiy materiali bo'ladi"¹. Ushbu fikrlarni adibning tarixiy-biografik qisalariga tatbiq etadigan bo'lsak, ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin. 1. Tarixiy shaxs boshidan kechirgan voqea va hodisalarni, faktlarni boshqa badiiy obraz orqali tipiklashtirish. Boshqacha qilib aytganda, badiiy to'qimaga asoslangan tarixiy-biografik qissalar. 2. Bosh qahramon sifatida tarixiy shaxsning o'zi tanlanadi. Ya'ni tarixiy voqelikka asoslangan tarixiy-biografik qissalar. Adibning yuqorida nomlari zikr etilgan qissalarini ikkinchi guruhga kiritish mumkin.

Adib tarixiy-biografik qissalarida tariximizda munosib nom qoldirgan ko'plab tarixiy shaxslar obrazlari yaratilgan. Bu haqda adabiyotshunos P.Shermuhamedov yozadi: "Mirkarim Osimning yana bir guruh asarlari borki, ularda xalqimiz tarixining zarvaraqlarida o'chmas qilib yozib qo'yilgan siymolarning tabarruk obrazlari tasvirlangan. "Jayhun ustida bulutlar" qissasining qahramoni Beruniy, "Yulduzlar sayri"dagi Ulug'bek, "Zulmat ichra nur" asaridagi Navoiy, "Ixlos tuzog'i" qahramoni Mashrab mana shunday obrazlardir"². Binobarin, "Yulduzlar sayri" tarixiy-biografik qissasidagi badiiy lavhalar fikrimizni tasdiqlaydi. Unda Ulug'bekning bolalik yillari tasvirlanadi.

Adabiyotimizda buyuk astronom olim, ulu shoh, temuriylarning zabardast vakili Ulug'bek haqida nasr va nazm janrlarida bir necha asarla yaratilgan. O'zbek mumtoz adabiyoti sahifalariga nazar tashlasak, Ulug'bek hayotligidayoq unga baishlab asarlar yozilgani ma'lum bo'ladi. Ulug'bek davrida yashagan shoir Sakkokiy unga atab 7 ta qasida yozgan. Yoxud hazrat Navoiy yozadilar:

Temurxon naslidin sulton Ulug'bek

Ki olam ko'rmadi sulton aningdek...

Adabiyotimizning keyingi davrlarida ham Ulug'bek shaxsiga qiziqish juda kuchli bo'lgan.

XX asr o'zbek adabiyotida tarixda o'chmas iz qoldirgan ko'pgina siymolarning badiiy siymolari proza, poeziya va dramaturgiyaning qator janrlaridagi asarlarda yaratilgan. Amir Temur, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Boborahim Mashrab...Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Shunday ulular qatorida mashhur astronom olim, bemisl shoh, temuriylarning zabardast vakili Ulug'bek nomi ham turadi. Ulug'bek haqidagi dastlabki asar o'zbek adabiyotining cho'ng qoyalardan biri Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub. Uning dramatik turga kiruvchi "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi fikrimizning yorqin dalilidir. Unda shoh va olim Ulug'bek hayotining so'nggi yillari badiiy gavdalandirilgan. She'riy yo'l bilan yaratilgan bu tragediyada Ulug'bek xarakteri yorqin hayotiy lavhalarda ochib berilgan. Bunda adib tarixiy voqelikka asoslangan. Ulug'bek haqidagi ikkinchi yirik asar taniqli yozuvchi Odil Yoqubovning "Ulug'bek xag'zinasi" romanidir. Unda ham tarixiy shaxs hayotining so'nggi yillari asos qilib olingan. Roman janri xarakteridan kelib chiqib, asarda Ulug'bekning serqirra faoliyati keng va batafsil yoritiladi. Asarda tragediyaga nisbatan tarixiy timsollar keng o'rin egallaydi.

Ulug'bekka bag'ishlangan uchinchi asar taniqli tarixnavis yozuvchi Mirkarim Osim qalamiga mansub "Yulduzlar sayri" qissasidir. Ushbu qissada yuqorida nomlari zikr etilgan asarlardan farqli o'laroq, Ulug'bekning bolalik yillari, qisman katta yoshlik davri qalamga olingan.

O'tgan asrning 90-yillarida Ulug'bek shaxsiga qiziqish yanada kuchaydi. Taniqli tarixshunos olim Bo'riboy Ahmedov Ulug'bek tavalludining 600 yilligiga bag'ishlab "Mirzo Ulug'bek" nomli badia yaratdi. Unda tarixiy shaxs hayotining hamma davrlari: bolaligi, yoshlik yillari, o'rta va keksa yoshlik yillari qamrab olingan. Olim Ulug'bek hayot yo'liga nafaqat tarixchi sifatida balki ijodkor sifatida nazar tashlaydi. Shu asosda murakkabliklarga to'la davrdagi Ulug'bekning tarixiy siymosini bugungi kitobxon ko'z oldida gavdalandiradi. Bu haqda asar boshida B.Ahmedov shunday yozadi: "...Ulug'bek podshoh bo'lib emas, balki Movorounnahr xalqlarining ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti tarixiga qo'shgan ulkan shaxsiy ulushi bilan. Ilm-fan va madaniyat namoyandalariga ko'rsatgan rabati va homiyligi, ularga rahnamo bo'lgani bilan tarixda qoldi.

Ulug'bekning nomi va asarlari bizning mamlakatimizdagina emas. Balki butun dunyoga mashhur. Ulug'bekni olim sifatida 16 asrdan beri Ovrupoda ham, Osiyo mamlakatlarida ham, Amerikada ham yaxshi bilishadi, zo'r hurmat-e'tibor bilan tilga olishadi"³. Olim Ulug'bek haqida bir qancha tarixiy, ilmiy, badiiy asarlar yaratilganini e'tirof etadi. Kitobni yozishda olim 15-16-asrlarda yaratilgan tarixiy asarlar, tazkiralar, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat-ush shuaro", Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" kabilardan unumli foydalangan. Shu asosda Ulug'bek haqida ham ilmiy, ham badiiy uslubdagi mukammal bir asar bunyodga keldi.

¹ Аброров А. Ўзбек прозасида автобиографик қиссалар. Китобда: Нозирги ўзбек адабиётининг миллий ўзигахослиги. Тошкент: "Фан", 1984 йил, 110-б.

² Шермухамедов П. Тарихимиз саҳифалари. Китобда: Миркарим Осим. Карвон йўлларида. Тошкент: G'G'ACH, 1978, 7-бет.

³ Ahmedov B. Mirzo Ulug'bek. Badii. Toshkent: "Ёзувчи", 1994 йил, 5-б.

Mirkarim Osimning "Yulduzlar sayri" qissa janrida yaratilgan Ulug'bek haqidagi realistik asardir. Bu asar adibning 70-yillar oxiridagi ijodiga mansub. Asar yozilgan paytda Mirkarim Osim tarixnavis adib sifatida xalqimiz orasida tanilib qolgan edi. Shundan bo'lsa kerak, qissa adibning yetuk nosir sifatidagi siymosini namoyon eta olgan.

Avvalo, asarning nomlanishi haqida ikki og'iz so'z. U ramziy mazmun tashiydi. "Yulduzlar sayri" deyish bilan yosh Ulug'bekning bolaligidan yulduzlar ilmiga qiziqqanligiga ishora qilinadi. Asar davomida uning mohiyati ochila boradi. Qissada 15-asrdagi hayotning ruhi yorqin sezilib turadi. Bu haqda adabiyotshunoslar N.Norqulov va M.Sattorovlar yozadilar: "Tarixiy-biografik asarning vazifasi faqat o'tmishda yashab o'tgan mashhur ijodkor yo olim, tarixiy real shaxs hayoti haqida xarakterli va muntazam ma'lumot berish bilangina cheklanganda, bu janrda ijod etuvchi adibning mehnati nisbatan ancha engil ko'chardi. Ammo san'akorning vazifasi bugina emas. Tarixiy-biografik asarda ham tarixiy-badiiy asarlarning barchasi uchun bo'lgani kabi, eng muhimi, davrning ruhini bera olishdir"¹. "Yulduzlar sayri" asarida adibning boshqa tarixiy-biografik qissalarida bo'lgani kabi davr ruhi qahramonlar dunyoqarashi, fikrlash tarzi, ruhiyatida yorqin aks etgan.

"Yulduzlar sayri" adibning boshqa shu yo'nalishdagi asarlari kabi o'tmish tariximizni chuqur his qilish, mazkur davrning tarixiy va madaniy hayotiga xolis baho berish kabi hamma zamonlar uchun dolzarb masalada katta ahamiyatga egadir.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK TO'GARAKLAR.

Ergasheva Nodira Mansurovna,

Vobkent tuman 25-umumta'lim maktab o'qituvchisi.

Kalit so'zlar: Darsdan tashqari ishlar, matematik o'n daqiqalik va soatlar, to'garaklar, tanlov, olimpiada, matematik kecha, viktorina, matematik matbuot, matematik ekskursiya, matematik gazeta.

Annatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil uy ishlari, o'quvchilar bilan yakka va guruh mashg'ulotlar, matematikaga qobiliyatli o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar, matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar yoritilgan.

Matematika to'garagi sinfdan tashqari ishlarning eng ommalashgan turi. To'garak ixtiyoriy ravishda tuziladi. Har qaysi matematika to'garagida qatnashadigan o'quvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, aks holda o'qituvchiga qiyinchilik tug'diradi va o'quvchilar to'garakda aktiv ishtirok eta olmaydilar. To'garak a'zolarining soni ko'payib ketsa, ularni ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Guruhlar bilan bir hafta, ikkinchisi bilan ikkinchi hafta shug'ullanish mumkin. Mashg'ulot 30 – 40 minut davom etsa yetarli. Ma'lum vaqt oralig'ida guruhlarni qo'shib mashg'ulot o'tkazish va mashg'ulotlarni musobaqa yoki viktorina o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Matematika to'garagi mashg'ulotini sentyabr oyining ikkinchi yarmidan boshlab (birinchi sinf uchun ikkinchi yarim yillikdan,) may o'yining birinchi yarmida yakunlash mumkin. To'garak ishlarini boshlashdan oldin o'qituvchi kamida 3 – 4 mashg'ulotga etadigan material tayyorlab, uni rejalashtirish va to'garakni tashkil qilishga tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Matematika to'garagida o'rganiladigan material mazmuni va hajmini chegaralab qo'yish qiyin. Bunda maktab sharoiti va o'qituvchining tayyorgarligiga qarab to'garakda turli xil tarixiy, nazariy va amaliy materiallarni o'rganish mumkin.

Matematika to'garagining muvaffaqiyatli ishlashda, o'quvchilarni to'garak ishiga jalb qilishda, qiziqtirishda dastlabki mashg'ulotlarning ro'li katta. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dastlabki mashg'ulotlarning ko'p qismini qiziqarli matematikaga ajratish ham yaramaydi, chunki keyingi mashg'ulotlarda qiziqarli matematikadan boshqa materillarga qiziqish kamayadi, natijada o'quvchilar to'garakdan soviy boshlaydi. Shuning uchun dastlabki mashg'ulotlarda ham, keyingi mashg'ulotlarda ham qiziqarli materiallar hajm jihatdan barobar ma'quldir. Sinfdan tashqari ish tashkilotchisining matematik va umumpedagogik mahorati ham bu ishning sifatiga va ilmiy metodik darajasiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. O'qituvchining shaxsiy malakasi ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli sinfdan tashqari ish har bir o'qituvchini qanoatlantiradigan aniq uslubiy ko'rsatmalar berishi qiyin.

To'garak mashg'ulotlarini o'tkazish sinf darslariga yaqin. Sinfdagi va sinfdan tashqari ishlarning o'xshashligi jamoa o'quv ishini tashkil qilish formasi bilan aniqlandi, bunda o'qituvchi o'quvchilar guruhi bilan mashg'ulot olib boradi, zaruriy tushunchalarni beradi, o'quvchilardan so'raydi va h. Bu yerda o'quvchilarga katta tashabbuskorlik berish maqsadga muvofiq, ularga muhokama qilinayotgan masala yuzasidan mulohazalarini bemalol aytish uchun to'laimkoniyat berish kerak. Bunda o'quvchilarni